DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA MENTORLIK TIZIMINI TATBIQ QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	696
<b>Xurshida Maxmadaminova</b>	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING HISOB-KITOB VA UNDIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	706
<b>Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li</b>	
ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛЮЧЕВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ УЗБЕКИСТАНА.....	715
<b>Наимов Шохрух Шарофиддинович</b>	
KORPORATIV DIVIDEND SIYOSATINING YANGI JIHATLARINI O'RGANISH: RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKAT MISOLIDA.....	723
<b>Eshev Furqat A'zamovich</b>	
RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA "AQLLI SHAHAR" BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH: INSONGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV.....	730
<b>Raximova Madina Shuxrat qizi</b>	
HUDUDIY IQTISODIY TIZIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILY TUZILMALARI.....	737
<b>Umarov Oqil Omiljonovich</b>	
MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARINING FOND BOZORIDAGI INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	742
<b>Yuldashev Fozil Turapovich</b>	
МАКРОИҚТISODIY MUVOZANATNI MODELLASHTIRISHDA МАТЕМАТИК USULLARNING TATBIQI VA PROGNOZLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	749
<b>Abdiraimov Abbos Xolmurodovich</b>	
ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....	756
<b>Мирзамухамедова Шахзода Акмалжон кизи</b>	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH.....	762
<b>Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li</b>	
СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СОСТОЯНИЙ ЧЕЛОВЕКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИМИ ОБОРОТАМИ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	766
<b>Жумаев Шавкат ХХХ</b>	
SUV XO'JALIGI SOHASIDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	769
<b>Dilshod Pulatov, Dildora Mirzaeva</b>	
МЕТОДЫ СБОРА И АНАЛИЗА ДАННЫХ ДЛЯ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЦИФРОВЫХ ИНВЕСТИЦИЙ.....	776
<b>Каракулов Фарход Зайпудинович</b>	





НЕФОРМАЛЬНАЯ ЗАНЯТОСТЬ И ТЕНЕВАЯ СТОРОНА ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ ВЫЗОВОВ И ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕР ПО ЛЕГАЛИЗАЦИИ.....	782
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	787
Xalikov Akmal Xolboyevich	
TIJORAT BANKLARDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI .....	793
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
RAQOBATBARDOSH MUHITDA INNOVATSION MENEDJMENTNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI.....	799
Siddikov Askar Axrorovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI .....	803
Isakova Naima Ikromjonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI .....	809
Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi	
MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	813
Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna	
SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	818
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI .....	826
Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....	830
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinova	
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOJ-TARIF SIYOSATINI METODOLOGIK TAKOMILLASHTIRISH MODELLARI .....	837
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA) .....	844
Bekmetov Xursandbek Ilxamovich	
SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH.....	850
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
MINTAQI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURIYATI.....	857
Achilova Firuza Kurbanovna	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI .....	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI .....	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI .....	874
Rustamova Dilsabxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
<b>Jurayev Xusan Atamuratovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
<b>Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	904
<b>Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA) .....	909
<b>Kurbonov Xayrilla</b>	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH .....	915
<b>Mirzayev Rustam Ro'ziyevich</b>	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ .....	921
<b>Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович</b>	
XORIJIIY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
<b>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</b>	



# XORIJIY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNINI VA UNING RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI

Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrası v.b. dotsenti, PhD.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xorijiy davlatlarda auditorlik faoliyatining o'rnini, uning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya hamda Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur) auditorlik tizimlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, auditni tartibga soluvchi institutlar va amaliy mexanizmlar yoritilgan. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), xalqaro audit standartlari (ISA) hamda professional etika normalarining auditorlik faoliyatidagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, audit jarayonida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, Big Data va ESG hisobotlari auditni kabi zamonaviy yo'nalishlarning o'rnini ochib berilgan. Xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** auditorlik faoliyati, xalqaro audit standartlari, IFRS, ISA, xorijiy tajriba, auditorlik tizimi, korporativ boshqaruv, auditni rejalashtirish, raqamli audit, ESG hisobotlari.

**Abstract.** This article examines the role of auditing activities in foreign countries, their stages of development, and current trends. The study analyzes the organizational and legal frameworks of auditing systems in the United States, the United Kingdom, France, Germany, and selected Asian countries such as Japan, South Korea, and Singapore. The importance of International Financial Reporting Standards (IFRS), International Standards on Auditing (ISA), and professional ethical principles in ensuring audit quality is highlighted. The paper also addresses the growing role of digital technologies, artificial intelligence, Big Data, and ESG reporting audits in modern auditing practices. Furthermore, the applicability of foreign auditing experience to the development of auditing activities in Uzbekistan is substantiated.

**Key words:** Auditing activity, International Standards on Auditing, IFRS, ISA, foreign experience, auditing system, corporate governance, audit planning, digital audit, ESG reporting.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль аудиторской деятельности в зарубежных странах, этапы её развития и современные тенденции. В исследовании проанализированы организационно-правовые основы аудита в США, Великобритании, Франции, Германии, а также в странах Азии (Япония, Южная Корея и Сингапур). Освещена роль международных стандартов финансовой отчётности (IFRS), международных стандартов аудита (ISA) и норм профессиональной этики в обеспечении качества аудита. Особое внимание уделено применению цифровых технологий, искусственного интеллекта, Big Data и аудиту ESG-отчётности. Обоснованы возможности использования зарубежного опыта для развития аудиторской деятельности в Республике Узбекистан.

**Ключевые слова:** Аудиторская деятельность, международные стандарты аудита, IFRS, ISA, зарубежный опыт, аудиторская система, корпоративное управление, планирование аудита, цифровой аудит, ESG-отчётность.

## KIRISH

Auditorlik faoliyati bozor iqtisodiyotining muhim institutlaridan biri bo'lib, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shaffofligini oshirish hamda investitsion muhitni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro standartlar talablariga muvofiq tashkil etilgan auditorlik va buxgalteriya hisobi tizimi korxonalarining moliyaviy holati va faoliyat natijalari to'g'risida to'liq va haqqoniy axborot shakllantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, auditorlik faoliyati nafaqat moliyaviy hisobotlarni tekshirish bilan cheklanib qolmay, balki korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, ichki nazoratni baholash, risklarni kamaytirish va investorlar ishonchini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya,





Germaniya hamda Osiyo mamlakatlarida auditorlik faoliyati maxsus qonunlar, professional standartlar va mustaqil nazorat organlari orqali tartibga solinadi.

Mazkur maqolada xorijiy davlatlarda auditorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari, auditni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda xalqaro audit standartlarining amaliyotdagi o'rnini yoritilgan. Shuningdek, audit jarayonida zamonaviy texnologiyalar, raqamli yechimlar va barqarorlik hisobotlari auditi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish auditorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik faoliyati va uning rivojlanish tendensiyalari masalasi xorijiy mamlakatlar amaliyotida keng yoritilgan bo'lib, ushbu sohada xalqaro standartlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda professional institutlar muhim o'rin egallaydi. Adabiyotlarda auditorlik faoliyati, avvalo, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va ishonchliligini ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Xalqaro amaliyotda auditning asosiy vazifalari moliyaviy nazoratni kuchaytirish, korporativ boshqaruv sifatini oshirish va investorlar manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va xalqaro audit standartlari (ISA) auditorlik faoliyatining metodologik asosini tashkil etishi adabiyotlarda alohida ta'kidlanadi. Ushbu standartlar moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va tekshirish jarayonida yagona yondashuvni ta'minlab, audit natijalarining xalqaro miqyosda taqqoslanuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, professional etika qoidalari auditorlarning mustaqilligi, xolisligi va kasbiy mas'uliyatini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholanadi.

AQSh auditorlik tizimi adabiyotlarda eng rivojlangan va qat'iy tartibga solingan tizimlardan biri sifatida ko'rsatib o'tiladi. Sarbanes–Oxley qonuni va mustaqil nazorat organlari orqali auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanganligi, auditorlarning ichki nazorat tizimlarini baholashdagi roli kengaygani qayd etiladi. Buyuk Britaniya tajribasida esa parlament nazorati, milliy audit organining mustaqilligi va professional tashkilotlarning faoliyati auditorlik tizimining asosiy xususiyatlari sifatida yoritiladi [7].

Fransiya va Germaniya adabiyotlarida davlat auditining markazlashgan modeli, yuqori nazorat organlarining mustaqil maqomi hamda audit jarayonlarida kollegiallik tamoyillari muhim jihatlar sifatida ko'rsatiladi. Osiyo mamlakatlari, jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur tajribasida auditorlik faoliyatining davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinishi, majburiy audit tizimi va markaziy regulyator organlar faoliyati keng yoritilgan.

So'nggi yillarda auditorlik faoliyatiga oid adabiyotlarda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, Big Data va blokcheyn texnologiyalarining audit jarayoniga joriy etilishi alohida yo'nalish sifatida qaralmoqda. Shuningdek, ESG va barqarorlik hisobotlari auditi auditorlik faoliyatining yangi rivojlanish bosqichi sifatida baholanmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlar tajribasida auditorlik faoliyati doimiy ravishda takomillashib borayotgan tizim bo'lib, xalqaro standartlar, kuchli huquqiy asos va zamonaviy texnologiyalar uning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tajribalarni O'zbekiston auditorlik amaliyotiga moslashtirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xorijiy davlatlarda auditorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini o'rganishda nazariy tahlil va qiyosiy solishtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya hamda Osiyo mamlakatlarining auditorlik tizimlari tahlil qilindi.

Shuningdek, auditorlik faoliyatining xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), xalqaro audit standartlari (ISA) va professional etika qoidalari bilan bog'liqligi tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Olingan natijalarni umumlashtirishda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida xorijiy davlatlarda auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari, tashkiliy-huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilindi. O'rganilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda auditorlik faoliyati faqat moliyaviy hisobotlarni tekshirish bilan cheklanmay, balki korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, ichki nazoratni baholash va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

AQSh tajribasi auditorlik faoliyatining eng rivojlangan va huquqiy jihatdan mustahkam tizimlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Sarbanes–Oxley qonuni qabul qilinishi natijasida auditorlik faoliyati ustidan mustaqil nazorat kuchaytirilib, PCAOB tashkil etildi. Ushbu tizim auditorlarning nafaqat moliyaviy hisobotlarni, balki ichki nazorat tizimlarini ham tekshirishi zarurligini belgilab berdi. Natijada audit sifati va shaffofligi oshdi (1-jadval) [1].

1-jadval. AQShda auditorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari (yillar kesimida)<sup>1</sup>

Yillar	Me'yoriy hujjatlar	Auditorlik faoliyatiga ta'siri
1933–1934	Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun (1933) va Qimmatli qog'ozlar birjasi to'g'risidagi qonun (1934); SEC tashkil topdi	Ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarini auditorlar tekshirish majburiy bo'ldi.
1977	Xorijiy korrupsion amaliyotlar to'g'risidagi qonun (FCPA)	Ichki nazorat tizimlarini joriy qilish shart qilindi, auditorlar boshqaruvni ham baholay boshladi.
1980–1990-yillar	Auditorlik firmalarida konsalting xizmatlarining kengayishi	Mustaqillik va manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan xavotirlar kuchaydi.
2002	Sarbanes–Oxley (SOX) qonuni	Ichki nazorat talablari kuchaydi, auditorlarga cheklovlar qo'yildi, PCAOB tashkil etildi.
2003–2005	PCAOB tomonidan ilk auditorlik standartlari ishlab chiqildi	Auditorlik faoliyati davlat nazorati ostiga o'tdi.
2010	Dodd–Frank qonuni	PCAOB vakolatlari kengaydi, broker va dilerlar ustidan ham nazorat o'rnatildi.
2015–2018	PCAOB auditorlik hisobotlariga CAMs (muhim audit masalalari) kiritdi	Auditorlik xulosalari batafsil va shaffof bo'ldi.
2018–hozirgi davir	Sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi	Real vaqt rejimida audit, katta hajmdagi tranzaksiyalarni tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ldi.
2020– hozirgi davir	ESG va barqarorlik hisobotlari auditi	Auditorlar ijtimoiy, ekologik va boshqaruv masalalarini ham tekshira boshladi.
Kelajak tendensiyasi	Xalqaro audit standartlari (ISA) bilan uyg'unlashuv	Moliyaviy hisobotlarning global taqqoslanuvchanligi ta'minlanadi.

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, AQShda auditorlik faoliyati bosqichma-bosqich rivojlanib, zamonaviy texnologiyalar va ESG yo'nalishlari bilan boyib bormoqda [1].

Buyuk Britaniya auditorlik tizimi parlament nazoratiga asoslangan mustaqil davlat auditi modeli bilan ajralib turadi. Milliy audit boshqarmasi (National Audit Office) davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini tekshiradi va parlamentga hisobot beradi. Audit jarayonlarida professional tashkilotlar va xalqaro audit standartlaridan foydalaniladi (2-jadval) [8,9].

2-jadval. Buyuk Britaniyada auditorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari<sup>2</sup>

Yillar	Me'yoriy hujjatlar	Auditorlik faoliyatiga ta'siri
1844	Joint Stock Companies Act	Kompaniyalar moliyaviy hisobotlarini tekshirish majburiy qilindi.
1900	Companies Act	Auditorlarning vazifalari va javobgarligi belgilandi.
1948	Companies Act (isloh qilingan)	Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi kuchaytirildi.
1880–1900-yillar	ICAEW va boshqa professional tashkilotlarning shakllanishi	Professional audit institutlari shakllandi va xalqaro nufuzga ega bo'ldi.
1970–1990-yillar	Xalqaro audit standartlari bilan uyg'unlashuv	Buyuk Britaniya audit tizimi xalqaro integratsiya jarayoniga qo'shildi.
2000-yillar	Korporativ mojarolar (Enron, Parmalat) va islohotlar	Financial Reporting Council (FRC) asosiy nazorat organiga aylandi.
2018	Carillion inqirozi	Auditorlik bozorida monopoliyaga qarshi chora-tadbirlar muhokama qilindi.
2020–hozirgacha	Texnologiyalarni joriy etish (AI, Big Data, blokcheyn)	Audit jarayonida raqamli texnologiyalar keng qo'llanmoqda.
2020–hozirgacha	ESG va barqarorlik hisobotlari auditi	Auditorlar ekologiya va ijtimoiy masalalarni ham baholay boshladi.
Kelajak tendensiyasi	ARGA tashkil etilishi	Audit bozorida mustaqillik va shaffoflik yanada kuchaytiriladi.

1 Muallif tomondan tayyorlangan

2 Muallif tomondan tayyorlangan



Natijalarga ko'ra, Buyuk Britaniyada auditorlik faoliyati isloh qilinib, nazoratni kuchaytirishga qaratilgan yangi regulyator — ARGA tashkil etilishi rejalashtirilmogda [2].

Fransiya va Germaniyada auditorlik faoliyati davlat tomonidan markazlashgan holda boshqariladi. Fransiyada audit ikki bosqichda — mintaqaviy va milliy darajada amalga oshiriladi. Germaniyada esa Hisob palatasi mustaqil konstitutsiyaviy organ sifatida faoliyat yuritadi va faqat qonunga bo'ysunadi [6].

Bu davlatlarda auditning asosiy xususiyati — davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash va kollegial qaror qabul qilish tizimidir. Ushbu yondashuv auditorlik faoliyatining mustaqilligi va barqarorligini ta'minlaydi.

Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapurda auditorlik faoliyati qat'iy davlat nazorati ostida olib boriladi. Janubiy Koreyada Audit va nazorat kengashi (BAI) hamda moliyaviy nazorat organlari auditorlik faoliyatini tartibga soladi. Singapurda esa barcha kompaniyalar majburiy auditdan o'tishi shart bo'lib, ACRA [5] markaziy regulyator hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlarda auditorlik faoliyati bozor iqtisodiyotining muhim instituti sifatida shakllangan bo'lib, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash, korporativ boshqaruvni mustahkamlash va investitsion muhitni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida auditorlik faoliyati xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) [3], xalqaro audit standartlari (ISA) [4] hamda professional etika qoidalarga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Tadqiqot davomida AQSh auditorlik tizimi kuchli huquqiy asos, mustaqil nazorat organlari va ichki nazorat tizimlarini baholash mexanizmlari bilan ajralib turishi aniqlangan. Buyuk Britaniya tajribasida davlat auditi va parlament nazoratiga asoslangan mustaqil model shakllangan bo'lib, so'nggi yillarda auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan institutsional islohotlar amalga oshirilmogda. Fransiya va Germaniya tajribasi davlat auditining markazlashgan va mustaqil modeli bilan tavsiflanadi. Osiyo mamlakatlarida esa auditorlik faoliyati qat'iy davlat nazorati va majburiy audit tizimi asosida olib boriladi.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlar amaliyotida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, Big Data va ESG hisobotlari auditi auditorlik faoliyatining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari sifatida shakllanib borayotgani aniqlangan. Bu esa audit jarayonlarining shaffofligi, aniqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmogda.

– O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

– O'zbekistonda auditorlik faoliyatini rivojlantirishda xalqaro audit standartlari va professional etika qoidalarini amaliyotga to'liq joriy etishni davom ettirish maqsadga muvofiq;

– Auditorlik faoliyati ustidan mustaqil va samarali nazorat mexanizmlarini kuchaytirish xorijiy tajriba asosida takomillashtirilishi lozim;

– Audit jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy audit vositalaridan foydalanishni kengaytirish audit sifatini oshirishga xizmat qiladi;

– Xorijiy mamlakatlar, xususan, AQSh auditorlik tizimi tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirib joriy etish auditorlik faoliyatining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy amaliyotga moslashtirish O'zbekistonda auditorlik faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB). – Audit oversight standards and regulations.
2. Audit, Reporting and Governance Authority (ARGA). – United Kingdom audit reform authority.
3. International Financial Reporting Standards (IFRS). – International Accounting Standards Board (IASB).
4. International Standards on Auditing (ISA). – International Federation of Accountants (IFAC).
5. Accounting and Corporate Regulatory Authority (ACRA). – Singapore.
6. Bundesrechnungshof. – Germany Supreme Audit Institution.
7. Sh.Fayziyev, F.Islomov, A.Avloqulov "Xalqaro audit tizimi" o'quv qo'llanma. Toshkent 2007y, 11 bet (183)
8. В. В. Мясников Счетная палата как институт государственного финансового контроля на уровне субъекта Российской Федерации: дис. ... кандидата экон. наук: 08.00.10 / Мясников Владимир Викторович. – М., 2002. – 253 с
9. A.A.Karimov, F.R.Islomov, A.Z.Avloqulov Xalqaro audit. Darslik. –T. "IQTISOD-MOLIYA", 2015. -380 b.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>